

**YOSHLARNING BANDLIGI VA IJTIMOIIY ADAPTATSIYA**

Nazarova Nilufar Jo'rayevna

Toshkent davlat transport universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti (PhD)

Xolmurodov Agzam Aral o'g'li

*Toshkent davlat transport universiteti Sotsiologiya yo'nalishi 2-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning mehnat faoliyatida bandligi va ijtimoiy adaptatsiyasi jarayonlari sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maqolada O'zbekiston sharoitida yoshlarning mehnat bozoriga kirib borishi, kasbiy moslashuvi, ijtimoiy institutlar bilan o'zaro munosabati va integratsiya darajasi kabi muhim omillar yoritilgan. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun kompleks yondashuv va davlat, ta'lim, fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik zarur ekani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, sotsiologik tadqiqotlar, modernizatsiya, urbanizatsiya, raqamli texnologiyalar, davlat dasturi, adaptatsiya, statistika.

Аннотация: В данной статье с социологической точки зрения анализируются процессы занятости и социальной адаптации молодежи. В статье освещаются такие важные факторы, как выход молодежи на рынок труда в условиях Узбекистана, профессиональная адаптация, взаимодействие с социальными институтами и уровень интеграции. Также были рассмотрены существующие проблемы и пути их решения. По результатам исследования обоснована необходимость комплексного подхода и сотрудничества между государством, образованием, институтами гражданского общества для успешной адаптации молодежи к социальной среде.

Ключевое слово: Инновация, социальные отношения в обществе, социологические исследования, модернизация, урбанизация, цифровые технологии, государственная программа, адаптация, статистика.



Abstract: *This article analyzes the processes of youth employment and social adaptation from a sociological perspective. The article highlights important factors such as young people's entry into the labor market in Uzbekistan's conditions, professional adaptation, interaction with social institutions, and the level of integration. Existing problems and ways to solve them were also considered. Based on the research results, the need for a comprehensive approach and cooperation between the state, education, and civil society institutions for the successful adaptation of young people to the social environment has been substantiated.*

Keywords: *Innovation, social relations in society, sociological research, modernization, urbanization, digital technologies, state program, adaptation, statistics.*

Bugungi kun yoshlari har qanday jamiyatning eng dinamik, intiluvchan va innovatsion qatlamini tashkil etadi. Ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, iqtisodiy barqarorlikka erishishida munosib o‘rin egallashi, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga moslashuvi zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, jadal modernizatsiya jarayonlari, urbanizatsiya, raqamli texnologiyalarning rivoji va mehnat bozoridagi o‘zgarishlar fonida yoshlarning bandligi va ijtimoiy adaptatsiyasi masalalari global miqyosda ham, milliy darajada ham alohida e‘tibor talab qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar bilan ishlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi, yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularga zamonaviy ish o‘rinlarini yaratish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash borasidagi keng ko‘lamli islohotlar olib borilishi va ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Biroq mavjud choralar va resurslarga qaramay, ayrim hududlarda ishsizlik, migratsion kayfiyatlar, kasbiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, mehnat bozoridagi malaka nomutanosibligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda yoshlarning mehnat bozoriga kirib kelishi, o‘zini iqtisodiy jihatdan ta‘minlashi, shuningdek, ijtimoiy institutlar bilan aloqalar o‘rnatib, ijtimoiy tizimga integratsiyalashuvi ularning ijtimoiy adaptatsiyasining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda esa



yoshlarning hayotga bo'lgan munosabati, shaxsiy identifikatsiyasi, kasb tanlovi va kelajakka oid qarashlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, yoshlarning bandligini ta'minlash va ularning ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini oshirish masalalari nafaqat sotsiologik, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatdan ham chuqur tahlil etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonunida belgilangan ishsizlar, yoshlar, ayollar, mehnat bozorida ish topishga qiynaladigan shaxslarga, ijtimoiy muhofazaga muhtoj aholi toifalarini ishga joylashtirish kafolatlarini ro'yobga chiqarish ushuncha alohida e'tibor qaratiladi. Yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash davlat tomonidan ish bilan bandlik va mehnat bozorini tartibga solish mexanizmini ishlab chiqish zaruratini belgilab beradi, u ish bilan bandlik sohasidagi yuzaga kelgan turli hil vaziyatni statistik tahlil qilish va mehnat bozori prognozlariga asoslanadi.

Mehnat bozorida statistik tahlilining asosiy maqsadi mintaqaning mehnat bozorida ma'lum bir vaqt davridagi mavjud holati hamda aholi bandligiga ko'maklashish markazini ishlash faoliyatining ko'lami va natijalarini baholashdan iborat hisoblanadi. Yoshlar bandligini oshirish bo'yicha qilingan ishlar o'zining tashqi omillari asosida rivojlanayotgan joylarda ichki infratuzilmalar orasida takomillashtirishga, ya'ni Davlatning bandlikka ko'maklashish tuzilmalari, jamoatchi tashkilotlar va mahalliy boshqaruv organlarining o'zaro munosabatini muvofiqlashgan harakati hamda ular faoliyatini samarali tashkil qilish ijtimoiy mexanizmga bog'liq hisoblanadi. Aholining o'sish sur'ati yuqori bo'lgan va aksariyat rivojlanayotgan va rivojlanishi past bo'lgan davlatlarda aholini ish bilan ta'minlashda yetarli darajada muammolar mavjudligi tabiiy hol. Masalan, ish o'rinlarining kamligi, oylik maoshlarning pastligi, mehnat resurslarining kasbiy malakasi va bilim saviyasining yetishmasligi natijasidandir. Iqtisodiyotda ishsizlikning beshta asosiy sababi bor bo'lib bular.

- yangi texnologiyalarni joriy qilish bilan bog'liq bo'lgan hamda iqtisodiyotdagi boshqa tarkibiy o'zgarishlar;



- mehnat resurslariga bo'lgan talabning pasayishiga olib keladigan iqtisodiy tanazzul;
- davlat siyosati, eng kam ish haqining oshishi va shu sababli ishchi kuchiga talabning pasayib ketishi;
- iqtisodiyotning ayrim tarmoqlaridagi mavsumiy tebranishlar;
- demografik o'zgarishlar, ya'ni bunda mehnatga layoqatli aholining o'sishi ko'zda tutilladi. Ishsizlikni bartaraf etish va yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha rivojlangan mamlakatlar o'ziga xos modellarni yaratgan va aholi bandligini ta'minlash siyosatini olib borishda unumli foydalanib kelishmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ham yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan, tadbirkorlik va kichik biznesni, oilaviy tadbirkorlikni hamda o'z-o'zini band qilishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish asosida aholi bandligini oshirish shular jumlasidan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda ish bilan bandlik darajasi 2010-yilga nisbatan 113,9 foizga, 2015-yilga nisbatan 101,4 foizga o'sgan bo'lsa, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mos ravishda qishloq, o'rmon hamda baliq xo'jaligi 114,2 va 98,8 foizga, sanoat 111,5 va 101,2 foizga, qurilish 122,6 va 103,7 foizga, savdo 110,4 va 96,5 foizga, tashish va saqlash 122,2 va 101,4 foizga, ta'lim 105,3 va 104,9 foizga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar 109,4 va 108,4 foizga hamda boshqa faoliyat turlari bo'yicha 116,3 va 103,4 foizga o'sish kuzatilgan. Shuningdek, ish bilan band aholining mulkchilik turlari bo'yicha tahlil natijalariga asosan, 2020-yilda davlat sektorida bandlar soni 2,5 mln. kishini va nodavlat sektorda bandlar esa 10,7 mln. kishini tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2021-yil yanvar holatiga asosan, mamlakatimizda mehnat idoralaridan ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni 37,1 ming kishini tashkil etgani ma'lum qilingan. Ushbu ko'rsatkich esa 2010-yilga nisbatan qariyb 2,3 baravarga oshgan bo'lsada, uning o'sish sur'ati 2000-yilda 0,4 foiz, 2004-yilda 0,4 foiz, 2008-yilda 4,9 foiz, 2012-yilda 4,9 foiz,



2016-yilda 5,2 foiz va 2020-yilda 110,5 foizni tashkil etgan. Ushbu yuqorida yozilgan har bir raqamlar oddiy raqamlar emas. Har bir raqam zahirida Davlat statistikasiga tegishli bo'lgan raqamlar mavjud. Statistik ma'lumot tahlillarida bitta raqam o'rnining ahamiyati juda ham katta hisoblanadi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, mamlakatimizdagi yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlash hamda ishsizlik darajasini kamaytirish bo'yicha quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi albatta:

- yoshlarni ish bilan bandligini oshirish bo'yicha muammolarni quyidan yuqoriga qadar chuqur tahlil qilish hamda amaliy yechimlarini ishlab chiqish va amalda bajarilishini nazorat qilish lozim bo'ladi;

- yoshlarni mehnat bozoridagi talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlariga tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish, va ularning munosib ish topishiga yordamlashish orqali ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolar hal bo'ladi.

Bugungi zamonamizda yoshi kattalarga nisbatan yoshlar o'rtasida ishsizlikning paydo bo'lishiga ko'pgina omillar ta'sir qiladi va juda og'ir oqibatlarga olib kelishi ham mumkin. Ushbu muammo o'z dolzarbligini iqtisodiy o'sish davrida yo'qotmaydi, inqiroz davrida esa yanada kuchayishini guvohi bo'lamiz.

- Ta'lim muassasalarini bitirgan yosh mutaxassislar uchun ish o'rinlarining yetarli emasligi;

- Malakali ishchi kuchi yetishmasligi va yoshlarning mehnat ko'nikmalari bozor talablariga to'liq mos kelmasligi;

- Ta'limni bitirgan yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy hayotga moslashishida qiyinchiliklar;

- Yoshlar o'rtasida ijtimoiy muhitga kirishishda psixologik to'siqlar;

- Qishloq joylarda imkoniyatlar cheklanganligi, madaniy va ta'lim muassasalarining yetishmasligi;

- Yoshlarning ish izlab chet elga chiqishi, ichki va tashqi mehnat migratsiyasi ortishi;

- Bu jarayonda yoshlarning huquqiy himoyasiz qolishi va ijtimoiy xavflarga duchor bo'lishi kabilar turli yosh guruhlar o'rtasidagi ishsizlikning turli darajada



bo'lishi ijtimoiy tabaqalashuvning sababi ham bo'ladi. Individual shaxsga nisbatan olib qaralganda yoshlar o'rtasida ishsizlik tug'ilish darajasining pasayishiga olib kelishi mumkinligi ham ko'rib chiqilgan.

BMTning barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishish yoshlar o'rtasida ishsizlik hamda ularga munosib ish o'rinlari yetishmasligi kabi muammolarning hal qilinishi bilan uzviy bog'liqdir. Biroq, yoshlar ishsizligini kamaytirish maqsadida munosib ijtimoiy va bandlik siyosatining olib borilishi jamiyatning har bir tomonlama rivojlanishi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga asos bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni bildirib o'tamiz:

birinchidan, yoshlar bandligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirishga imtiyozlar berish, ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish lozim.

ikkinchidan, ijtimoiy adaptatsiya dasturlari, yoshlar uchun motivatsion va psixologik treninglar tashkil etish, yoshlar markazlari, madaniyat va sport inshootlarini ko'paytirish, tarbiya va ma'naviyat ishlarini kuchaytirish, migratsiyani tartibga solish, chet elda ishlayotgan yoshlar huquqlarini himoya qilish, tashqi migratsiya o'rniga ichki ish o'rinlarini ko'paytirish kerak.

Mashhur sotsiolog olim Pitirim Sorokin shunday degan: "Har qanday jamiyatning kelajagi, avvalo, uning yosh avlodini qanday tarbiyalayotgani va unga qanday sharoit yaratib berayotganiga bog'liqdir". Ushbu fikr zahirida qanchadan qancha yoshlar masalasiga faqat ijtimoiy muammo sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyotining strategik omili sifatida qarash zarurligi mujassam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz/acts/51887>
2. Ляпкало А.С. Статистический анализ уровня занятости населения.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
4. www.mehnat.uz – O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy sayti.



5. Alikariev N.S., Alikarieva A.N. Oliy ta'lim sifati menejmenti tizimini rivojlantirish konsepsiyasi//—Ijtimoiy tadqiqotlar jurnalil (www.tadqiqot.uz/soci) elektron jurnali. №1. – Toshkent, 2020. – B. 7-18. DOI
6. Xusanova X.T. Талаба ёшлар социал категориясини ўрганишда мултидисциплинар ёндашув. Ижтимоий фанлар электрон журнали № 2 (2019) 02-12-2019.
7. Kholbekov A.J. Jamiyat ijtimoiy sohasil tushunchasiga doir. // Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari tuplami (Toshkent sh., 25-may 2023.). -Toshkent : UzMU. – B/ 53-56.
8. Назарова Н. Ж. ЁШ МУТАХАССИСЛАРНИНГ КАСБИЙ РАҚОБАТБАРДОШЛИК СИФАТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ (ТРАНСПОРТ СОҲАСИ МИСОЛИДА) //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 765-771.
9. Rakhmonov D., Nazarova N. Socio-Philosophical Reflection of the Social Sphere Model //Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 1-6.
10. Nosirov R. et al. Occupational problems in youth competitiveness //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – Т. 2789. – №. 1.
11. Nazarova N. J., Jumaniyazova N. S. The Role of Family on Preventing the Youth's Deviant Behaviours //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 854-859.